

Forecast of macroeconomic indicators for 2026 and strategic reforms in fiscal policy

Khusanov Murodjon Sunnatullayevich, Ph.D. in Economics,

Acting Associate Professor of the Department of "International Tourism and Economics" of Kokand University, Deputy Head of the Department of "Marketing and PR", Chief Coordinator of the "Admissions Committee".

Azimjonov Abdulvasit Abror o'g'li,

Student of the "Computer Engineering" department of Kokand University, KI-1-23 group

Annotation

This thesis describes the important factors that determine the economic stability and growth rate of each country, macroeconomic indicators and fiscal policy. The process of forming forecasts of macroeconomic indicators for 2026 is closely related, first of all, to the current economic situation of the country, national and global economic trends, as well as the state's fiscal policy strategy.

Annotatsiya

Ushbu tezisdan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va fiskal siyosat har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va o'sish sur'atini belgilovchi muhim omillar haqida bayon etilgan. 2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarni shakllantirish jarayoni, avvalo, mamlakatning joriy iqtisodiy holati, milliy va global iqtisodiy tendensiyalar, shuningdek, davlatning fiskal siyosat strategiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Fiskal siyosatning asosiy vositalari davlat budjeti, soliqlar, xarajatlar va moliyaviy tartibga solish mexanizmlari iqtisodiy rivojlanish, inflyatsiya darajasi, ish bilan bandlik va investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, 2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi faqatgina raqamli indikatorlar tahliliga emas, balki fiskal siyosatdagi kutilayotgan o'zgarishlarga ham tayanadi. Tezisdan mamlakatning YalM o'sish sur'ati, inflyatsiya, ish bilan bandlik darajasi, davlat byudjeti daromad va xarajatlari, shuningdek, fiskal siyosatdagi asosiy yangilanishlar va ularning iqtisodiyotga ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Ushbu tahlil siyosatshunoslar, iqtisodchilar va moliya mutaxassisleri uchun 2026-yil iqtisodiy rejalashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi mamlakat iqtisodiyotining joriy holati, o'rta muddatli rivojlanish strategiyalari hamda global iqtisodiy tendensiyalar asosida shakllantiriladi. Prognozlarga ko'ra, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi va investitsiya faolligining oshishi kutilmoqda.

Yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sish sur'ati 2026-yilda 5–6 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish asosan qayta ishlash sanoati, qurilish va xizmatlar sohasining kengayishi, shuningdek, ichki va tashqi investitsiyalar hajmining ortishi hisobiga ta'minlanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi YalMning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Inflyatsiya darajasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2026-yil uchun inflyatsiya darajasi 8–10 foiz diapazonida prognoz qilinib, bu ko'rsatkich fiskal va pul-kredit siyosati o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan choralar orqali nazorat ostida ushlab turilishi rejalashtirilmoqda. Asosiy e'tibor iste'mol narxlarini barqarorligini ta'minlash va aholi real daromadlarining pasayib ketishining oldini olishga qaratiladi.

Mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha 2026-yilda bandlik darajasining oshishi va ishsizlikning qisqarishi kutilmoqda. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda hududiy dasturlar orqali yangi ish o'rinlari yaratish bandlik darajasini 65–67 foizgacha oshirishga xizmat qiladi.

2026-yilda fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlari davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash, daromad bazasini kengaytirish va byudjet xarajatlarning samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Davlat byudjeti daromadlari YaIMga nisbatan 25–27 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda, bunda soliqlar asosiy manba bo'lib qoladi.

Soliq siyosatida asosiy e'tibor soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratiladi. Soliq yukini oshirmagan holda, raqamli texnologiyalar orqali soliq tushumlarini ko'paytirish fiskal siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi.

O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2024-yilda 9 foiz atrofida bo'lishi, 2025-yilda 7 foiz bo'lishi va 2027-yilga kelib 5 foizgacha pasayishi prognoz qilingan. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilinishi natijasida 2024-yilgi Davlat budjeti xarajatlari qayta ko'rib chiqilib, xarajatlar tasdiqlangan budjetga nisbatan 1,5 foizga oshishi kutilmoqda. Bunda, konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining YaIMga nisbatan 4 foizdan oshmasligi ta'minlanadi. Uzoq muddatli fiskal maqsadlar va makroiqtisodiy istiqbollardan, jumladan, o'rta muddatda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YaIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik vazifasidan kelib chiqib, 2025-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari prognozi 431,1 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 26,4 foiz, 6 xarajatlari prognozi 480,3 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 29,4 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda. Bunda, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari mo'ljallari 2026-2027-yillarda YaIMga nisbatan 26,6 foiz, xarajatlari mo'ljallari YaIMga nisbatan 2026-2027-yillarda 29,6 foiz miqdorida prognoz qilingan. Kelgusi yilda O'zbekiston Respublikasi nomidan va kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 5,5 mlrd AQSH dollari miqdorida, shundan 3 mlrd AQSH dollari Davlat budjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, budjet taqchilligini moliyalashtirishga, qolgan qismini investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish belgilangan¹.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma loyihalariga ajratiladigan mablag'lar muhim o'rin egallaydi. 2026-yilda byudjet xarajatlarining YaIMga nisbati 28–30 foiz darajasida bo'lishi kutilmoqda. Bu esa davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq bajarishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Byudjet defitsiti fiskal barqarorlikni saqlash maqsadida YaIMga nisbatan 3 foizdan oshmagan darajada ushlab turilishi rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, davlat qarzini boshqarish siyosati takomillashtirilib, qarz yuki o'rta muddatli istiqbolda barqaror darajada saqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va fiskal siyosat o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Fiskal siyosat orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash makroiqtisodiy prognozlarning amalga oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2026-yil uchun rejalashtirilgan fiskal choralar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, inflyatsiyani jilovlash va bandlikni oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Shu jihatdan, fiskal siyosatning samarali yuritilishi prognoz ko'rsatkichlarining real iqtisodiy natijalarga aylanishida muhim omil bo'lib qoladi.

2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozining shakllanishiga bir qator ichki va tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillar qatoriga iqtisodiy islohotlarning izchil davom ettirilishi, institutsional muhitning yaxshilanishi, davlat boshqaruvida ochiqlik va samaradorlikni oshirish hamda hududiy rivojlanish siyosati kiradi. Ushbu omillar iqtisodiy faollikni kuchaytirib, YaIM o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlaydi.

Tashqi omillar sifatida global iqtisodiy o'sish sur'atlari, xalqaro savdo sharoitlari, asosiy eksport mahsulotlari narxlarining o'zgarishi va tashqi moliyaviy bozorlar holati muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan beqarorliklar 2026-yil prognozlariga ma'lum darajada xatar tug'dirishi mumkin bo'lsa-da, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish va tashqi savdoda muqobil bozorlarni rivojlantirish bu xatarlarni yumshatishga xizmat qiladi. 2026-yilda fiskal siyosatning ustuvor yo'nalishlari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratiladi. Davlat xarajatlarini rejalashtirishda ularning samaradorligi va natijadorligi asosiy mezon sifatida belgilanadi.

¹ https://api.mf.uz/media/filestore/2026-2028-yillar_uchun_Budjetnoma.

Xususan, infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan xarajatlar transport-logistika tizimini rivojlantirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va xususiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Ijtimoiy soha xarajatlarning oshirilishi aholi turmush darajasini yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun poydevor yaratadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar mehnat unumdorligini oshirib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan makroiqtisodiy siyosati barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlardan biri 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobarga oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun aholi jon boshiga YaIM hajmini 4 ming AQSH dollaridan oshirish hisoblanadi. Buning uchun inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e'tibor berilib, bu sohadagi xarajatlarning ustuvorligi ta'minlanadi, shuningdek, ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag'larning manzilliligi va samaradorligi oshiriladi. Aholining real daromadlarini oshirish maqsadida har yili budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorlari inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda oshirib boriladi. Shuningdek, davlat pensiya tizimini isloh qilish va ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 2030-yilga qadar asosiy kapitalga 250 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiyalarni o'zlashtirish va unda 110 mlrd AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yillik eksport hajmini 45 mlrd AQSH dollaridan oshirish choralari ko'riladi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun o'rta muddatli davlat qarzini boshqarish strategiyasi ishlab chiqilmoqda va ushbu strategiyada davlat qarzining YaIMga nisbatan 50 foizdan oshmasligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Daromadlar bazasini kengaytirish maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish rejalashtirilgan, bu esa o'z navbatida tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi, soliq tizimini raqamlashtirish va uni soddalashtirish bo'yicha choralar samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Mazkur maqsadlardan kelib chiqib, 2025-2027-yillar uchun maqsadli ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarida JBning tomonidan har yili aholi jon boshiga daromadlari bo'yicha davlatlarni guruhlash natijalarini inobatga olib, prognozlar shakllantirib borilmoqda².

2026-yilda fiskal siyosatni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish muhim vazifa hisoblanadi. Byudjet daromadlarining prognozdan past bo'lishi, tashqi qarz xizmat ko'rsatish xarajatlarning ortishi yoki inflyatsion bosimning kuchayishi fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan, fiskal zaxiralarni shakllantirish, byudjet xarajatlarini ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish va davlat qarzini boshqarish strategiyasini takomillashtirish rejalashtirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar fiskal intizomni mustahkamlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va fiskal siyosatdagi asosiy o'zgarishlar davlat organlari, moliya institutlari va tadbirkorlik subyektlari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur prognozlar iqtisodiy rejalashtirish, byudjet siyosatini shakllantirish va investitsion qarorlar qabul qilishda ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, prognozlar asosida ishlab chiqilgan fiskal siyosat choralari iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa: 2026-yil uchun mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanishi va fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish sur'atini barqaror saqlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish va ish bilan bandlikni oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Prognozlar YaIM o'sishi, inflyatsiya, byudjet daromadlari va xarajatlari kabi ko'rsatkichlar asosida tuzildi va ularning fiskal siyosatdagi o'zgarishlarga bevosita bog'liqligi aniqlanmoqda. YaIM o'sishi 2026-yilda YaIM o'sish sur'ati taxminan 5–6% oralig'ida prognoz qilinmoqda.

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2025-yil uchun O'zbekiston 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son qaror.
<https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>

Ushbu o'sish asosan sanoat va xizmat ko'rsatish sektorlarining rivojlanishi, investitsiya faolligining oshishi va eksport imkoniyatlarining kengayishi hisobiga amalga oshishi kutilmoqda. Inflyatsiya va narxlar barqarorligi fiskal siyosatdagi kutilayotgan o'zgarishlar, jumladan byudjet xarajatlarining samarali taqsimlanishi va soliq darajalarining optimallashtirilishi inflyatsiya darajasini 9–10% oralig'ida barqaror saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatning narxlarni nazorat qilish mexanizmlari va ijtimoiy yordam dasturlari aholining real daromadlarini himoya qiladi. Bandlik darajasining oshishi va ishsizlikni kamaytirish fiskal siyosatning mehnat bozorini rag'batlantirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Kutilayotgan strategik choralar ish o'rinlarini yaratish va kichik hamda o'rta biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, soliq tizimini modernizatsiya qilish va byudjet defitsitini kamaytirish 2026-yil fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan. Ushbu chora-tadbirlar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga, davlat qarzining boshqarilishini yaxshilashga va iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, 2026-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va fiskal siyosatdagi asosiy o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan strategik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu prognoz va tahlillar davlat siyosatini shakllantirishda, iqtisodiy rejalashtirishda va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2025-yil uchun O'zbekiston 2024-yil 24-dekabrda
O'RQ-1011-son qaror. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>.
- Xusanov M. Mamlakatimizda xizmatlar sohasi rivojlanishining makroiqtisodiy prognozlash usullari. "Milliy qadriyatlar va global jarayonlar: Ilmiy yondashuv va integratsion tendensiyalar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. <https://scientificacademy.org/index.php/milliy-iftixor/article/view/13>.
- Farmonov, I. (2024). Xalqaro darajalarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 97-100.
- Macroeconomics in The Case of The Republic of Uzbekistan: Status, Analysis, and Policy Recommendations. American Journal of Economics and Business Management (AJEBM) Global Research Network LLC (USA) ISSN - 2576-5973 Vol. 8 No. 11 (2025): November, Published: Nov 13, 2025 DOI: <https://doi.org/10.31150/ajebm.v8i11.4154>.
- Mustafakulov Sh. (2024). Nordic_Press, 1(0001). Makroiqtisodiyot - (darslik).
- Jo'rayev T., Tojiboyeva D. (2018). Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. "Fan va texnologiya" nashr. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - www.lex.uz.
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti - www.imv.uz